ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 4

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 4

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 26.04.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV, iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Amonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 26.04.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)

Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)

Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)

Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)

Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)

Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)

Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Шоира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 26.04.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Amonturdieva, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

YERJANOVA SAULE BAYMURZAYEVNA,
TO‘YCHIYEVA ZULEYXA HAMROQO‘LOVNA
Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”
asarida so‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash 7

BERDIYEV XUSAN XOLNAZAROVICH
«Devon-u lug‘otit turk»dagi she’rlarda
hojib va radif san’atlari 13

УМУРҚУЛОВ ЗАФАР БЕКПЎЛАТОВИЧ
Қиёслаш инсон тафаккур тарзининг маҳсули 16

ESHBOYEV QAHRAMON BAKIR O‘G‘LI
So‘zlararo darajalanish o‘quv lug‘atida so‘zlarga izoh berish 20

NAVRUZOVA MUYASSAR GAYBULLAYEVNA
Kasallik nomlarining onomasiologik, semantik ifodasi 24

BOZOROV HAMID XO‘SHMURODOVICH
Antroponimlarning lingvomadaniy xususiyatlari
(O‘zbek xalq ertaklarida mavjud antroponimlar misolida) 28

ДЖАББАРОВА ШОИРА БАЛТАЕВНА
Медиа тилида муқобилсиз лексика таснифлари: назарий ёндашув 33

KULTAYEVA FAZILAT BAXTIYAROVNA
Ergonimlarning morfologik derivatsiyasi xususida 36

HAYDAROVA KAMOLA DAVRANOVNA
O‘zbek, rus va ingliz tillarida meva nomlarining qiyosiy-chog‘ishtirma tahlili 39

TERMIROVA KAMOLA
Ziravor atamalar va ularning lug‘atlarda ifodalanishi 43

TURDIMURODOV SIROJIDIN ESHQOBILOVICH,
JABBOROVA SEVARA BAXTIYOR QIZI
Badiiy matnda evfemik birliklar tahlili 50

SOATOVA YULDUZ
Bobur she’riyatida ayol qaddi-qomatini ifoda etuvchi lingvistik vositalar 53

ТОЛИЕВА ШОИРА ИЛХОМОВНА
Лингвистик экспертиза методларининг тамойиллари 57

AVRIDDINOV JOBIR MUSULMON O‘G‘LI
Sharq olimlarning «Zufongo‘yo va Jahonpo‘yo» lug‘atida ilmiy qarashlari 59

ДАВЛЯТОВА ЭЛЬВИРА МУРАДОВНА
Парадигматические свойства иноязычных лексических единиц
в русском и узбекском языках (на материале интернет медиа) 61

МУНДАРИЖА

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Концепт «богатство» во фразеологизмах
и паремиях узбекского и русского языков 64

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Эволюция лексических единиц обозначающих мужчин и женщин 67

QULMAMATOVA MUATTAR OTABEK QIZI
Ingliz va o‘zbek maqollarida “boylik” konseptining chog‘ishtirma tadqiqi 70

FARZANA NABI,
ABDULLA XUDAYQULOV ESHQUVVATOVICH
Official documents in dari language, its translation challenges 73

ЖАББАРОВА НАРГИЗА ИСЛАМЖАНОВНА,
РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Влияние гендерной лексики на сознание и поведение людей 76

ADABIYOTSHUNOSLIK

ARSLONOV ABDIMUROD KARAMATOVICH
“Qissasi Rabg‘uziy”da xalq og‘zaki ijodi syujetlari va motivlari 80

КАЗАКОВА ГУЛАСАЛ КУРАЛОВНА
Эссе жанрида шахс концепциясининг бадиий-публицистик талқини 82

LOLAYEV SHUXRAT ALIQOBIL O‘G‘LI
Turkistonda “Usuli jadid” maktablarining shakllanishi va ahamiyati 84

USMONOVA MOHIDIL LAZIZ QIZI
Ravnaq g‘azallari tabdilidagi matniy tafovutlar 87

TA’LIM

ABDUQAYUMOVA NARGIZA RAIMOVNA
Bo‘lajak rus-tili o‘qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga
tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish metodikasi 90

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

"QISASI RABG'UZIY"DA XALQ OG'ZAKI IJODI SYUJETLARI VA MOTIVLARI

Arslonov Abdimurod Karamatovich,
Termiz davlat universiteti dotsenti

Rabg'uziy asaridagi hikoyat qahramonlariga va mazmuniga oldindan sharhlar beradi, sababiki bu sharhlar hikoyatlarni to'g'ri anglashga va kitobxonda shubhali savollar tug'ilmasligiga zamin bo'ladi. Masalan, Rabg'uziy bo'zchilik hunari va bo'zchilar haqida bir qancha hikoyat keltiradi. O'sha hikoyatlarning ayrimlarida bo'zchilik kasbiga ijobiy munosabat bildirilgani holda, ba'zilarida bu hunarga salbiy qaraladi. Rabg'uziy salbiy munosabat sababini Odam atoning o'g'li Shis va undan keyingi davrlardagi Bibi Maryam bilan bog'liq voqealarga bog'laydi. «Qisasi Rabg'uziy»da Mavlo azza va jalla Qobilning o'limidan keyin Odam atoga Shisni berdi. Mavlo azza va jalla Shisga bo'zchilik hunarini berdi va «Uyning ichida ko'lankada o'tirib ishlagin» dedi. Boshqalar esa e'tiroz bildirdilar: «Shis uy ichida o'tirib mehnat qiladi, biz esa tashqarida qishda ham, yozda ham azob chekib mehnat qilamiz. Biz ham bo'zchilikni o'rganaylik», dedilar. Odam ato buni eshitib, bo'zchilik hunarini duoyibad qildi: «Iloyo, bo'zchilikni bularning ko'ngliga dushman qilgin». Mavlo azza va jalla hammaning ko'nglida bo'zchilikni dushman qildi. Yana rivoyat qilishlaricha, bo'zchilikning barakoti bo'lmas. Chunki bo'zchilar Zamzam qudug'iga siyganlar va najaslarini tashlaganlar[1].

Turli mavzulardagi hikoyatlar tahlili ko'rsatadiki, Rabg'uziy hikoyatlarni tanlashda va asarga olib kirishda ma'lum tamoyillarga tayanadi. Bu tamoyillar shundan iboratki, turli toifadagi insonlarning xulq-atvori va xatti-harakatlari ularning takrorlanmas obrazini yaratishga, shu bilan birga didaktik hikoyatlarning shakllanishiga asos bo'lgan.

Oltin O'rda davridagi yozma adabiyotda, xususan, «Qisasi Rabg'uziy»da xalq og'zaki ijodi syujetlari va motivlari tizimlararo aloqalarni hosil qiladi. Xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot tizimlararo aloqalarining o'z vazifasi bor: tizimlararo aloqalar voqealarning va janrlarning paydo bo'lishi umumiyligini taqozo qiladi[2], ya'ni voqealar va janrlar har ikkala tizimda yaxlitlashadi. Adabiyotdagi janrlar shakllanishiga oid qonuniyatlar «Qisasi Rabg'uziy»gacha shakllanib, bu asarda ma'lum darajada o'z izini qoldirgan. Bu umumiylikni asardagi birgina hikoyat janri misolida ko'rish mumkin. Ammo, «Qisasi Rabg'uziy»dagi hikoyat janri ertak janri asosida paydo bo'lgan deb emas, balki Rabg'uziy ertak janridan foydalangan, deb talqin qilish o'rinli, ya'ni Rabg'uziy o'z asariga aynan folklorizm hodisasini olib kirganini bu o'rinda alohida ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. Ayrim hikoyatlarning rivoyatnamo yoki afsonanamo xususiyati, shuningdek, boshqa kichik janrlarning hikoyatlar bilan uyg'unlashuvi, bu jarayonda folklorga xos tasvir vositalarining qo'llangani, hikoyatlar syujetining ertaklarga xos bayon usuli ana shundan dalolat beradi. Folklor an'analari har bir davrda va har bir adabiyotda o'ziga xoslik kasb etadi. «Qisasi Rabg'uziy»dagi hikoyatlar, qolaversa, barcha qissalar ham ana shu jihatlari bilan – ertaklarning bayon usuli hukmronligi bilan farq qiladi. Jumladan, mubolag'a san'atidan hikoyatlarda istifoda etilishi shuni ko'rsatadiki, aynan mubolag'a san'ati ayrim hikoyatlarning asosida ertak motivlari va syujetlari yotganini ko'rsatadi. Avjning boshiga hudhud tog'ni teshib, xalqa qilib kiygizib qo'ygani, Musoning qiyofasi tasviri, Avjning bo'yi nihoyatda uzunligidan jasadi dengizga ko'prik bo'lganini mubolag'a san'ati mahsuli deb hisoblash mumkin. Aslida, Rabg'uziy hikoyatlarda mubolag'a yaratishni emas, o'quvchini voqealarga ishontirishni maqsad qilib qo'ygan.

«Qisasi Rabg'uziy»dagi hikoyatlarning muhim qirralaridan biri shuki, Rabg'uziy hikoyat janri talablaridan chetga chiqqan holda bayon usuliga o'zgartishlar kiritadi. Rabg'uziy hikoyatni asar mazmuni va maqsadiga yo'naltirgan holda ertaklarga xos bayon usulida hikoya qiladi. Avvalo, bu xususiyat ertaklarning boshlanmasini hikoyatda qo'llashda ko'rinadi. Jumladan, asardagi *«Qissai valodati Muhammad Rasulullohi sallolohu alayhi vasallam»* qissasi tarkibidagi hikoyat aynan ana shu yo'nalishda yaratilgan hikoyatlarga misol bo'la oladi. Hikoyatni o'qir ekanmiz, boshlanishidayoq turkiy xalqlar ertaklarining boshlanmasidagi bayon usuliga duch kelamiz. Odatda, ertaklarning boshlanmasida, albatta,

[1] Носируддин Бурҳонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – Б. 33

[2] Храпченко М. Размышления о системном анализе литературы // Вопросы литературы, 1975. – № 3. – С. 110.

qahramonning keying sarguzashtlariga zamin yasaydigan motiv hikoyatni ertakka yaqinlashtiradigan muhim omildir. Jumladan, *Shom viloyatindagi malikning bir Fotima otlig‘ qizi bor erdi. Erdin tul qolmish erdi. Ul ne kasb, qullari, topug‘chilari birla telim mol yuklab, Makkaga keldi. El qirog‘ida chodir tikib o‘lturdi.* Mana shu voqeadan keyin kitobxon hikoyatning keyingi sarguzashtlarini kutadi. Albatta, Fotimaning taqdirida o‘zgarish yasaydigan kutilmagan voqea yuz berishini kitobxon anglaydi. Voqealar rivojida ertakning bayon usuligina emas, balki ayrim detallar ham kiritiladiki, hikoyatning zaminida sehrli ertaklarga xos bayon usuli yotganini ko‘rsatadi.

Yana yuqoridagi hikoyatning davomiga murojaat qilamiz. Endi hikoyatni ertakka yaqinlashtiradigan nur timsoli bilan birga Abdulloh obrazi ham kirib keladi: *Abdulloh ovg‘a chiqib, yonib kelurinda, ul chodirni ko‘rdi. «Bu ne erkan, ko‘rayin» teb chodirg‘a keldi. Fotimai Shomiya Abdulloh elindagi nurni ko‘rdi.*

Parchadagi nur detali hikoyatni ertakka yaqinlashtiradigan asosiy omildir. Ana shu nur timsoli tug‘ilajak Muhammad alayhissalomdan dalolat beradi. Fotima bu nurni oldindan bilgani va o‘sha nurga egalik qilish uchun Abdullohga turmushga chiqqani Shomdan kelayotgan edi. Fotima Abdullohga yetishish uchun harakat qiladi va so‘ngra maqsadini Abdullohga ayon qiladi: *Abdullohni chodirg‘a tushurdi. Bir teva so‘ydi. Taom yegandin so‘ng, uzrlar qilib, o‘zin anga arza qildi. «Shom viloyatidin sanga bo‘layin teb keldim. So‘zumni qabul qilg‘il, mani nikoh birla olg‘il» tedi. Abdulloh aydi: «Man bu zamon yozidin kelurman. Evga borayin, Aminani ko‘rayin. Nikoh tilab, seni olayin», teb otlandi. Fotima ul so‘zg‘a sevinchliq bo‘ldi. Nikoh yarog‘in qila boshladi. Abdulloh evga borib Aminaga qovushdi.*

Rabg‘uziy mazkur hikoyatda nur timsoli asosiy omil ekanini ko‘rsatish maqsadida Fotimaning Abdullohga taklifidan asosiy niyatini ko‘rsatadi. *Ul suhbatda ul nur Amina rahming‘a kechti. Andin so‘ng Abdulloh Fotima so‘zin otasi Abdul Mutallibg‘a aytdi. Abdul Mutallib «Olg‘il» tedi. Abdulloh otlandi, Fotimag‘a keldi. Fotima ul nurni Abdulloh elninda ko‘rmadi, aydi: «Ey Abdulloh, Shom maliklari mani qo‘ldilar. Mol tovar arza qildilar. Man ularni qabul qilmadim. Man saning uchun kelmay erdim. Ul elningdagi nur umidig‘a kelib erdim, emdi ul nurdan mahrum qoldim» teb oh teyu ingranu otlanib yo‘lig‘a ketti. Ul vaqtda Amina Muhammad rasulullohga yukluk bo‘ldi*[1].

Umuman, Sharq rivoyatlarida nur muqaddas timsol hisoblanadi. Misol uchun Iso Masihning onasi Bibi Maryam osmondan tushgan nur shaklidagi Muqaddas Ruhdan homilador bo‘lgani va Iso Masih tug‘ilgani haqidagi voqea keng tarqalgan.

Yoki Chingizxon avlodlarining mifik onasi Alanquvo ham eri Dobun Bayan vafotidan keyin nurdan homilador bo‘ladi. Abulg‘ozi Bahodirxon «Shajarayi turk» asarida ham Alanquvo va mo‘g‘ul urug‘lari nurdan kelib chiqqani haqida afsona borligini aytib o‘tadi. Hikoyatdagi Iblis voqeasidan keyin Rabg‘uziy hikoyatining yo‘nalishi tubdan o‘zgaradi. Rabg‘uziy kelduk bayoqi so‘zg‘a deya hikoyatning mazmunini va maqsadini o‘zgartiradi. Yuqorida biz mazkur hikoyatni ertakka yaqinlashtiradigan xususiyatlari haqida so‘z yuritgan edik. Hikoyatning mazmunigina emas, balki tuzilishidagi o‘zgarish ham bu fikrimizni tasdiqlaydi. Rabg‘uziy aynan kelduk bayoqi so‘zg‘a iborasidan keyin boshlangan voqealar yana Muhammad alayhissalom tug‘ilgandan keyin bir parcha oq bulut tushib kelib uni allaqayoqqa olib ketgani va doim Muhammad alayhissalom bilan birga bo‘lgani, jamiki shaytonlar har tomonga tarqalib ketganlari, zilzila yuz bergani kabi mo‘jizalarga borib tutashadi. Voqealarning izchilligi shu tariqa davom etadi. Yuqoridagi voqea Muhammad s.a.v.ni bulut olib ketgani bilan tugagan bo‘lsa, *kelduk bayoqi so‘zg‘a* iborasidan keyin bulut Muhammadni qaytarib olib kelgani bilan boshlanadi. Dissertatsiyada mazkur hikoyat motivlari bilan Rashididdin Fazlulloh Hamadoniyning «Jome’ut-tavorix» asaridagi chaqaloq O‘g‘uz bilan bog‘liq voqealar qiyoslangan va har ikkalasining ildizlariga oid xulosalar chiqarilgan.

Rabg‘uziy qissalar tarkibiga hikoyatlarni olib kirar ekan, hikoyatlar syujetiga afsonaviy ruh va mazmun singdiradi, hikoyatlarning didaktik mohiyatiga alohida e’tibor qaratadi. Bu bilan Rabg‘uziy o‘z asaridagi hikoyatlarning rang-barangligini ta’minlagan, badiiy asarning muhim adabiy kategoriyalarini – muallif pozitsiyasini, his-tuyg‘ularni, mavzuni, ya’ni axloqiy, falsafiy muammolarni, g‘oyani hikoyatlarga olib kirgan.

Xullas, Rabg‘uziy o‘zbek, umuman, sharq xalqlar ertaklarining hamma unsurlarini – syujet, motiv, obrazlar tizimi, detallar va ertaklar tarkibidagi mifologik tizimni yaxshi bilgani hikoyatlardan ma’lum bo‘lib turadi. Asardagi boshqa janrlarning ham xalq og‘zaki ijodiga hamohangligi yoki xalq og‘zaki ijodi janrlarining asarga olib kirilgani Rabg‘uziyning mahoratidan darak beradi.

Resume: In this article, the influence of folk oral creativity on the formation of stories in “Qisasi Rabguzi”, which is an important source in the formation of storytelling in the literary environment of the Golden Horde, is studied. Most of the literary genres in the literary environment of the Golden Horde, including the relative activation of the story as a necessity and necessity of the socio-political and literary-cul-

[1] Носируддин Бурҳонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 2-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1991. – Б. 103.

tural environment of its time, literary-aesthetic tasks are revealed; The role of folklore in Rabguzi's literary heritage, in particular, the influence of fairy tales on stories.

Резюме: В данной статье исследуется влияние народного устного творчества на формирование рассказов в «Кисаси Рабгузий», которая является важным источником для формирования повествования в литературной среде Золотой Орды. Раскрывается большинство литературных жанров в литературной среде Золотой Орды, в том числе относительная активизация повести как необходимости и необходимости общественно-политической и литературно-культурной среды своего времени, литературно-эстетические задачи; Роль фольклора в литературном наследии Рабгузи, в частности влияние сказок на рассказы.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2024; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ЭССЕ ЖАНРИДА ШАХС КОНЦЕПЦИЯСИНИНГ БАДИИЙ-ПУБЛИЦИСТИК ТАЛҚИНИ

Казакова Гуласал Кураловна,
Урганч инновация университети ўқитувчиси

90-йиллар адабиёти, хусусан, танқидчилик йўналишида сохта тамойиллардан қутулиш, уларнинг ўрнига бадиият қонуниятларини ўзида мужассамлаштирган, эркин фикр юритишга имкон яратадиган принципларни илгари суриш истаги пайдо бўлди. Истиқлолдан кейинги даврда яратилган бадиий адабиётнинг кўлами ҳам шахс концепциясининг бадиий ифодаси асосида, ёзувчи маҳорати, бадиий таҳлил жараёнида ижодкор руҳияти ва қаҳрамонларнинг турли хил характер хусусиятларини талқин этиш жараёнлари билан узвий боғланади. Бу янгича ёндашув адабиётшунослик фанлар тармоғидаги адабий танқидчилик ва унинг жанрлари, хусусан, эссечилик йўналишидаги назарий манбаларни ҳам янгилаб, бу борадаги ижодкорнинг поэтик маҳорати ҳақидаги қарашларни умумлаштириш имконини беради.

Бу ҳақида Ҳ.Каримовнинг қуйидаги фикрларини келтириб ўтиш жоиз: "Санъат, бадиий асар орқалигина кишининг қандай инсонлигини англаш мумкин. Сабаби ундагина кишининг ички олами, ҳаётга қараши, олам ва одам хусусидаги ўй-фикри ўз ифодасини топади, бутун сиймоси кўз ўнгида гавдаланади"[1]. Истиқлол йилларида ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар адабий танқид тафаккурида ҳам янгиланишларга туртки берди. Жумладан, адабий танқид фаоллашган, мавзу доираси кенгайиб, бошқа фанлар билан алоқаси мустаҳкамланган. Айниқса, адабий танқид фаолиятида миллий уйғониш адабиёти ва унинг етакчи намояндалари ижодини қайта ўрганишга қизиқишнинг кучайиши, шўро даврида яшаб ижод этган, бу давр адабиёти ривожига катта ҳисса қўшган адиблар ижодини янгича принциплар асосида баҳолаш адабий танқиднинг муҳим тамойилларидан ҳисобланган.

Адабий танқид жанрлари адабий этюдлар, адабий-танқидий мақолалар, эсселар, адабий портретлар зиммасига мана шундай масъулиятли топшириқ юклатилиши назарда тутилган. Бу ҳақида "Ўзбек адабий танқидчилиги тарихи" китобида шундай ёзилади: "Шўро йилларида яратилган адабий портретларда ёзувчининг фақат ижоди марказда тутилиб, унинг инсоний фазилатлари, ҳаётидаги драматизм, оила, муҳит каби масалаларга кам эътибор берилди"[2] ва айнан шу мавзуга доир Қ.Йўлдошев ижодида ҳам қатағон қурбонлари сиёсати сабабли ижод аҳлининг дунёқараши,

[1] Каримов Ҳ. Ўзбек романларининг тараққиёт тамойиллари. Услубий қўлланма. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – Б. 33.

[2] Nazarov B., Rasulov A., Ahmedova Sh., Qahramonov Q. O'zbek adabiy tanqidchiligii tarixi / Darslik. – Toshkent: 2012. – B. 276.